



**OSIYO
TEKNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**



IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



№6 - MAXSUS SON



**74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982**





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 153 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Yashil iqtisodiyotning mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri.....	10
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	
Orol dengizi mintaqasida cho'llanishni bartaraf etishning barqaror usuli: tabiiy ofat turizmi platformasidan foydalanish.....	14
Axunjonov Umidjon Mahamadumarovich	
Specific tasks of effective information and communication technologies management in the digital economy.....	23
Saatova Lolakhon Ergashevna	
Chuqur o'rganishga asoslangan moliyaviy firibgarlikni aniqlash uchun yondashuvlar.....	27
Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
AI va big data yordamida sanoat korxonalarida moliyaviy monitoring va budget nazoratini avtomatlashtirish.....	37
To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ro'li.....	44
Ismatov Zokir Xuvaytovich	
Tijorat banklari moliyaviy boshqarish tizimi samaradorligini takomillashtirish strategiyasi.....	48
Kadirov Lutfullo Xalimovich, Elboboyev Hamid Fozil O'g'li	
Ta'lim jarayonini 3d texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bosqichlari.....	52
Xushbaqov Eshpo'lat Alisherovich, Axmedova Asal Azimjon qizi	
Biosignallarni qayta ishlashda su'niy intellektga asoslangan bashoratlash.....	57
Qarshiyeva Jamila Yashnar qizi	
Shamol dvigatellaridan qurg'oqchil hududlarda foydalanish.....	60
Samadiy Xusrov Abdusalimzoda	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedial ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari.....	65
Sodiqova Umida Uchqun qizi	
Совершенствование и внедрение в практику методики когнитивного моделирования, направленной на решение педагогических задач учащихся с помощью современных информационных технологий (ИИ, VR, тренажеры, интеллектуальные системы).....	72
Турсунова Севара Юсуф кизи	
Yashil iqtisodiyot va uni barqaror rivojlantirish.....	78
Anvarjon Barnoyev	
Modern Mechanisms for Improving the Quality of Financial Control.....	81
Umirzoq Rakhmonov	
Zamonaviy o'qitish strategiyasi va metodlari: dasturlashni o'rganish uchun muhitlar.....	83
Mamatova Shirin Faxriyevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
Raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishga ta'siri: o'zbekiston misolida.....	92
Saydali Murodullayev	
O'zbekiston universitetlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar va hamkorlik.....	98
Berdiyeva Gulandon Sa'dullayevna	
Образование в цифровую эпоху: возможности модели «перевернутый класс».....	101
Мирзаев Сунмас Амирович	
Pedagogik mahoratni oshirishda sun'iy intellektni texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini takomillashtiradigan platforma ishlab chiqish.....	105
Salomov Shokirjon Jalilovich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
Algorithms and software for automatic spelling and grammatical editing of uzbek words.....	114
Daminov Sunatullo Furqat ugli, Eshkarayeva Narkhol G'uzarovna, Boymurodov Farrukh Farkhod ugli	
Innovatsion ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim sifatini oshirish.....	120
Mirzayeva Nilufar Fozilovna	
Kompyuter fanini o'quvchilarning loyihalarni o'qitish jarayonida soft ko'naklarni o'rnatish.....	124
Boboyev Shavkat To'rayevich, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	



Kompyuter arxitekturasini o'rganishni takomillashtirishda mobil o'yinli metod dasturlaridan foydalanish.....	135
Muxammadiyeva Nargiza Boxodir qizi, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	
Yosh dasturchilarning skratch dasturlash tili ko'nikmalariga elektron ta'lim platformasidan foydalanish bo'yicha dasturlash ko'nikmalariga ta'siri va dasturlashni o'rgatishga munosabat.....	143
Turdiyeva Umida Elmirzayevna, Normamatov Xayriddin Mengniyevich	



biri – ularning investitsiyaviy salohiyatini kengaytirish hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston tijorat banklari xorijiy investorlar uchun tobora jozibador bo'lib bormoqda. Bu nufuzli xalqaro moliyaviy institutlarning O'zbekiston banklariga bo'lgan ishonchining ortib borayotganidan dalolatdir.

Shubhasiz, jahon moliya bozorida O'zbekiston bank sektorining nufuzi oshmoqda. So'nggi yillarda rivojlanayotgan bozorlar, jumladan O'zbekiston iqtisodiyoti ham, xorijiy investorlar e'tibor markazida bo'lib, banklar faoliyatida ularning ishtiroki faollashishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi o'n yillik O'zbekiston uchun o'ziga xos "o'zgarishlar davri"ga aylandi. Mamlakatimizda bozorga asoslangan ko'p tuzilmali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda kuchli va barqaror rivojlanayotgan bank sektorini yaratish muhim o'rin egallaydi. Mustaqillik yillarida bank sektori monobank tizimidan bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan zamonaviy bank tizimiga, universal banklar modeliga bosqichma-bosqich o'tdi.

O'zbekistonda zamonaviy bank tizimini yaratish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bank sektorini liberallashtirish jarayonida keskin choralar emas, balki sifatli va o'z vaqtida islohotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratildi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz oldida zamonaviy bank infratuzilmasiga ega, samarali faoliyat yurituvchi bank sektorini shakllantirish vazifasi turibdi. Isloh qilinayotgan bank tizimi doirasida banklarni xususiylashtirish, bank kapitaliga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, ularning faoliyatini tijoratlashtirish, tadbirkorlik tuzilmalarining bank moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda omonatchilarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash orqali moliyaviy erkinlikni kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

O'rta muddatli istiqbolda mamlakatimizda bank sektorini rivojlantirish borasida ikkita asosiy strategik vazifa belgilangan. Birinchidan, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish. Ikkinchidan, O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorlarida faolligini oshirish. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning globallashtayotgan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish istagi va tayyorligini namoyon etadi.

Ichki nuqtai nazardan, barqaror banklarning moliyaviy holatini mustahkamlash, muammoli banklarni bozordan chiqarish, bank kapitallashuvi darajasi va kapital sifatini oshirish, bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish, shuningdek, banklar va real sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu orqali O'zbekiston bank sektorining rivojlanish ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish maqsad qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston bank tizimi oldida murakkab va ko'p qirrali vazifalar mavjud, biroq ularni hal etish bo'yicha mavjud salohiyat va belgilangan islohotlar istiqbollari ijobiy ko'rinmoqda. Shubhasiz, bank tizimining zaruriy rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshmaydi, balki faoliyat samaradorligini oshirish, tizimni erkinlashtirish va zamon talablari asosida isloh qilish orqali erishiladi. Bu esa butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Banks and Banking" (new edition) // National Database of Legislation, 2019–11–06, No. 03/19/580/3994; 2020–01–07, No. 03/20/600/0023.
2. Bogdankevich O. A. Organizatsiia deiatel'nosti kommercheskikh bankov: Otvetny na eksamenatsionnye voprosy. Minsk: Tetra Systems, 2012. – 128 s.
3. Ermakov S. L., Yudenkov Yu. N. Osnovy organizatsii deiatel'nosti kommercheskogo banka. Moskva: Knorus, 2019. – 645 s.
4. Tavasiev A. M., Mekhriakov V. D., Larina O. I. Organizatsiia deiatel'nosti kommercheskikh bankov: Teoriia i praktika. Moskva: YURAYT, 2016. – 735 s.
5. Volkov A. A. Upravlenie riskami v kommercheskom banke. Moskva: Omega-L, 2012. – 160 s.
6. Goncharov A. I., Goncharova M. V. Dengi. Kredit. Banki: Uchebnik. Chast 3: Banki. Volgograd: VolgGTU, 2010. – 252 s.
7. Qodirov L. (2024). Tijorat banklari moliyaviy boshqaruv tizimini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish. Muhandislik va Iqtisodiyot, 2(4).
8. Norqobilov S., Dadaboyeva X., Jo'rayev U. (2007). Xalqaro amaliyotda bank nazorati: Magistrlar uchun darslik. Toshkent: Iqtisod–Moliya. – 180 b.
9. Ahmedov M. U. (2011). Iqtisod va moliya. Ekonomika va Finanslar, № 10, 47–52 b.
10. Xalimovich K. L. (2024, mart). Commercial Banking Financial Management and Increased Efficiency of Credit Risk Management. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies, Vol. 3, pp. 15–18.
11. <https://lex.uz/ru/docs/4811037>
12. <https://www.dentons.com/ru/insights/articles/2020/may/28/strategy-for-the-development-of-the-banking-sector-in-uzbekistan-until-2025>



TA'LIM JARAYONINI 3D TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Xushbaqov Eshpo'lat Alisherovich

Osiyo texnologiyalari universiteti o'qituvchisi
E-mail: xushboqov3949@gmail.com

Axmedova Asal Azimjon qizi

Osiyo texnologiyalari universiteti magistranti
E-mail: axmedova3949@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishda raqamli ta'lim resurslari, xususan 3D VR texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida 3D VR texnologiyalarining tarix, arxitektura, menejment, astronomiya, tibbiyot, televideniye va xorijiy til o'rgatish kabi fanlardagi ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan.

Tegishli 3D modellashtirish dasturini tanlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, Tinkercad kabi boshlang'ich darajadagi qulay vositalardan boshlab, Fusion 360 va Blender kabi ilg'or dasturlargacha tavsiya etiladi.

Maqolada, shuningdek, 3D fazo, geometriya, teksturalash, animatsiya va raqamli ishlab chiqarish kompetensiyalarini bosqichma-bosqich o'rgatuvchi o'quv dasturining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) barqaror uylar loyihalash, tarixiy rekonstruksiyalar yaratish va yangi mahsulot prototiplarini ishlab chiqish misolida 3D modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali yondashuv sifatida taqdim etilgan. Baholash strategiyalariga amaliy topshiriqlar, portfel taqdimotlari hamda raqamli vositalar orqali fikr-mulohazalar va taraqqiyotni kuzatish vositalari kiradi.

Bundan tashqari, maqolada virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR), sun'iy intellekt (AI) va dasturlash kabi ilg'or texnologiyalarning 3D modellashtirish ta'limini takomillashtirishdagi roli tahlil qilingan.

Xulosa sifatida, raqamli dunyo talablariga moslashgan, texnologiyaga asoslangan dinamik ta'lim muhiti zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: 3D VR, darsliklar, tarixiy inshootlar, geografik hududlar, menejment, astronomiya, xorijiy tillar, Sketchfab, MyMiniFactory, Thingiverse, virtual reallik (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR), sun'iy intellekt (AI), 3D Max.

Abstract: This article presents the results of a study on the use of digital educational resources, specifically 3D VR technologies, in organizing and developing the educational process through digital tools. The research examines both the positive and negative aspects of implementing 3D VR in education across various disciplines such as history, architecture, management, astronomy, medicine, television, and foreign language acquisition.

The importance of selecting appropriate 3D modeling software is emphasized, ranging from beginner-friendly tools like Tinkercad to advanced programs such as Fusion 360 and Blender.

The article highlights the significance of well-structured curricula that gradually introduce students to 3D spatial awareness, geometric modeling, texturing, animation, and digital production skills.

Project-based learning (PBL) is introduced as an effective method for enhancing 3D modeling skills through examples such as designing sustainable houses, creating historical reconstructions, and prototyping new products. Assessment strategies include hands-on evaluations, portfolio presentations, and the use of digital tools for feedback and progress tracking.

Furthermore, the article discusses the role of emerging technologies like virtual reality (VR), augmented reality (AR), artificial intelligence (AI), and coding in enhancing 3D education.

In conclusion, it emphasizes the need for a dynamic, technology-oriented learning environment that equips students for the evolving demands of the digital world.

Key words: 3D VR, textbooks, historical structures, geographical areas, management, astronomy, foreign languages, Sketchfab, MyMiniFactory, Thingiverse, virtual reality (VR), augmented reality (AR), artificial intelligence (AI), 3D Max.



Аннотация: В статье представлены результаты исследования по использованию цифровых образовательных ресурсов, в частности технологий 3D VR, в организации и развитии образовательного процесса на основе цифровых технологий. В ходе работы были проанализированы положительные и отрицательные стороны применения 3D VR в обучении на примерах таких дисциплин, как история, архитектура, менеджмент, астрономия, медицина, телевидение и изучение иностранных языков.

Особое внимание уделяется выбору программного обеспечения для 3D-моделирования — от начального уровня (например, Tinkercad) до продвинутых программ, таких как Fusion 360 и Blender.

Также подчёркивается важность учебных программ, последовательно развивающих у студентов навыки пространственного мышления, моделирования, текстурирования, анимации и цифрового производства.

Метод проектного обучения (PBL) рассматривается как эффективный подход к развитию навыков моделирования на примере устойчивого строительства, исторических реконструкций и прототипирования новых продуктов. Оценка осуществляется с помощью практических заданий, портфолио-презентаций и цифровых инструментов обратной связи.

Кроме того, анализируется роль таких современных технологий, как виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), искусственный интеллект (AI) и программирование в повышении эффективности 3D-образования. В заключение подчёркивается необходимость динамичной и технологичной образовательной среды, соответствующей требованиям цифровой эпохи.

Ключевые слова: 3D VR, учебники, исторические объекты, географические регионы, менеджмент, астрономия, иностранные языки, Sketchfab, MyMiniFactory, Thingiverse, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), искусственный интеллект (AI), 3D Max.

KIRISH

3D – “uch o’lchovli” (ingliz tilida three-dimensional) atamasining qisqartma shaklidir. Bu shakllar uzunlik, balandlik va kenglik kabi uch koordinatali o’lchamga ega bo’lib, 3D kompyuter grafikasi, 3D printerlar, 3D skanerlar hamda boshqa ko’plab sohalarda keng qo’llaniladi. 3D modellar 2D shakllarga nisbatan ko’proq ma’lumotni ifodalash imkonini beradi, chunki ularning koordinatalari tashqi fazodagi nuqtalarga nisbatan belgilanadi. Bu esa o’zaro aloqadorlik va fazoviy aniqlikni oshiradi. 3D texnologiyalar turli yo’nalishlarda, jumladan arxitektura, dizayn, mashinasozlik va ta’lim sohasida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 3D printerlar orqali moddiy shakllantirish, interaktiv modellashtirish va ko’rgazmali namoyishlar imkonini beradi.

Zamonaviy davrda 3D dizayn, modellashtirish va animatsiya sohaslariga bo’lgan talab ortib bormoqda. Bu texnologiyalar animatsion filmlar, kompyuter o’yinlari, arxitektura, tibbiyot va muhandislik yo’nalishlarida keng qo’llaniladi. 3D ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning yangiliklarga ochiqligi, ijodkorligi va texnik salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv kasbga yo’naltirilgan tayyorgarlikni kuchaytiradi, muammolarni yechish ko’nikmalarini shakllantiradi va zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan kompetensiyalarni egallash imkonini yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi. 3D texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o’quvchilarning bilim olish darajasi va motivatsiyasini oshirishda sezilarli samaradorlikka ega. Bu texnologiyalar orqali o’quvchilarning idrok etish qobiliyati rivojlanadi, o’quv materiallarini vizual va interaktiv tarzda o’zlashtirish imkoniyati yaratiladi. 3D asosidagi ta’limning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o’qituvchilar tomonidan 3D darsliklar tayyorlanadi, bu esa o’quvchilarning mavzuni chuqurroq va osonroq o’zlashtirishiga yordam beradi;

- o’quvchilarga 3D modellarni yaratish o’rgatiladi, bu esa ularning tasavvur doirasini kengaytiradi va ijodiy salohiyatini faollashtiradi;

- 3D VR texnologiyalari asosida ta’limni tashkil qilish o’z-o’zini baholash ko’nikmalarini rivojlantiradi, bu orqali talabalar yuzaga kelgan muammolarni hal qilishni o’rganadi va o’z rivojlanishini monitoring qiladi;

- ta’lim jarayonining ko’rgazmali, interaktiv va real hayotga yaqin tashkil etilishi talabalar ongida chuqur taassurot qoldiradi;

- 3D VR vositalari yuqori sifatli ta’lim materiallari orqali murakkab bilimlarni sodda va tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi;

- 3D texnologiyalar o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish uslublariga moslashadi, ya’ni har bir talaba o’ziga qulay yondashuvni shakllantirishi mumkin;

- ta’lim jarayonining dinamikligi va interaktivligi o’quvchida ishtiyok, faol qatnashish va mustahkam bilim shakllanishiga turtki bo’ladi.

3D texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun Thingiverse, Tinkercad, Autodesk 1–2–3D, 3D Slash kabi onlayn platformalar mavjud bo’lib, ular o’quvchilarni 3D modellashtirish bo’yicha zarur vositalar bilan ta’minlaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'limda 3D texnologiyalarni qo'llash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Tilakova Mavjuda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishda virtual ekskursiyalar va 3D muhit asosidagi ta'limiy loyihalar alohida o'rin tutishini ilmiy asosda ko'rsatgan. Unga ko'ra, raqamli vositalar orqali yaratilgan modellar o'quv materialini chuqur anglashga xizmat qiladi. Mo'minov Erkin tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa virtual borliq metodikasi asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan. U 3D modellashtirish orqali shakllangan individual ta'lim yo'nalishlari har bir talabaning o'z uslubida o'rganishiga sharoit yaratishini ta'kidlaydi.

Qilichev va Taniberdiev o'z tadqiqotlarida virtual texnologiyalar, xususan 3D muhitdan foydalanish o'quv motivatsiyasini kuchaytirishi, interaktivlik asosida bilimlarni mustahkamlashi va murakkab tushunchalarni vizual ko'rsatish orqali tezroq o'zlashtirilishiga xizmat qilishini isbotlab bergan. Xushbaqov Eshpo'lat o'zining bir nechta maqolalarida 3D texnologiyalar asosida o'quvchilarda konstruktiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilgan. U ayniqsa 3D modellashtirish vositalari yordamida talabalarni muhandislik, texnika va dizayn yo'nalishlariga tayyorlashda aniq natijalarga erishganini qayd etgan.

Wickens tomonidan olib borilgan fundamental tadqiqotlar esa virtual reallik vositalarining psixologik ta'siri, o'quvchilar idrokiga ko'rsatadigan ta'siri va bilimni qabul qilish mexanizmlarini keng qamrovli tahlil qilishga asoslangan. Xulosa shuki, 3D va VR texnologiyalari bilan boyitilgan o'quv muhiti interfaol, vizual va individual yondashuvlarni uyg'unlashtirib, zamonaviy ta'limga transformatsion ta'sir ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kompyuter, telefon va planshet kabi raqamli qurilmalardan foydalanilib, ta'limni yanada rivojlantirish imkoniyatlari o'rganildi. O'qituvchilar va talabalar o'zlariga mos bo'lgan darsliklar, videodarslar hamda test materiallarini yaratish orqali o'quv jarayonini shaxsiylashtirishlari mumkin. Ushbu qurilmalar orqali o'quvchilarning o'zlashtirish usullariga mos o'quv texnologiyalarini tanlash va individual o'rganish strategiyalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Masalan, xorijiy til o'qitish jarayonida 3D texnologiyalarni qo'llash, talabalarda vizual va amaliy tajribani kuchaytiradi. 3D modellar biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarda murakkab tushunchalarni osonroq anglashga yordam beradi. Bunday vizual vositalar nafaqat tushunishni, balki qiziqishni ham oshiradi.

Bundan tashqari, 3D modellar talabalarning mustaqil o'rganish salohiyatini kuchaytiradi. Talaba 3D modellarni ko'rib chiqadi, ularni tahlil qiladi va o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartirishlar kiritadi. Ayniqsa, tarix, astronomiya va geografiya fanlarida bu yondashuv muhim ahamiyatga ega. Quyidagi resurslar orqali o'rganilayotgan obyektlarning 3D formatdagi modellarini vizual ko'rish imkoniyati mavjud:

- Sketchfab – eng katta global 3D model kolleksiyalaridan biri;
- Smithsonian X 3D – AQSHdagi tarixiy ob'ektlarning 3D modellarini taqdim etadi;
- Ancient History Encyclopedia – tarixiy inshootlarning uch o'lchovli shakllarini ko'rsatadi;
- Google Arts & Culture – dunyodagi mashhur muzeylar va yodgorliklarning 3D shakllari;
- MyMiniFactory – turli 3D modellarni yuklab olish uchun ochiq platforma;
- Thingiverse – foydalanuvchilarga yo'naltirilgan 3D modellar kutubxonasi;
- Stars.chromeexperiments.com – koinotdagi 10 000 ta yulduzning uch o'lchamli xaritasini ko'rsatadi;
- richiecar michael.github.io/sat/index.html – Yer orbitasidagi sun'iy yo'ldoshlar va kosmik chiqindilarning holatini 3D ko'rinishda aks ettiradi;

– asterank.com/3d – asteroidlar va koinot obyektlari haqidagi ma'lumotlarni vizual taqdim etuvchi platforma.

Tadqiqot davomida 3D ta'lim texnologiyalarining menejment sohasida qo'llanishi ham o'rganildi. Bu texnologiyalar loyihalarni boshqarish, kompaniya dizaynini rivojlantirish, marketing strategiyalarini shakllantirish va raqamli animatsiya asosida qarorlar qabul qilish jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, korxonalar boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotda 3D VR texnologiyalaridan foydalangan holda test sinovlarini o'tkazishning ta'lim sifati va real muhitga mos interaktiv tajriba taqdim etishi o'rganildi. Tajriba 2024–yil davomida ikki guruhda to'rt oy davomida olib borildi. Bir guruhga 3D texnologiyalar yordamida ta'lim berildi, ikkinchi guruh esa an'anaviy o'qituvchilik rejasiga asoslangan dars mashg'ulotlarida qatnashdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 3D texnologiyalar asosida o'qitilgan guruhda bilim darajasi va qiziqish sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Tadqiqotning yana bir yo'nalishi – 3D VR texnologiyalarining talabalarning intellektual salohiyatiga ta'siri, ulardagi motivatsiyani oshirishi va mustaqil fikrlashni shakllantirishdagi potensialidir. Ta'lim jarayonini 3D asosida tashkil etish va sifatini ilmiy asosda baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu texnologiyalarning samaradorligini yanada aniq ko'rsatishga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

3D ta'lim – zamonaviy ta'limning innovatsion shakli bo'lib, uning o'ziga xos afzalliklari va ayrim cheklovlari mavjud. Ushbu yondashuv yordamida o'quvchilar masofadan turib obyektlarning uch o'lchovli modellarini ko'rish, tahlil qilish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu 3D texnologiyalarining ta'limdagi asosiy ustunliklaridan biridir.

Tadqiqot doirasida to'rt oy davomida olib borilgan eksperimental tajriba asosida 3D texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning ijobiy va salbiy jihatlari kuzatildi. Quyida mazkur texnologiyaning asosiy afzalliklari va cheklovlari keltirilgan.

1-jadval. 3D ta'limning asosiy afzalliklari va cheklovlari

Afzalliklari	Cheklovlari
Vizualizatsiya	Texnik talablar
Interaktivlik	Resurs cheklovlari
Realistiklik	O'qituvchilarning tayyorgarligi
Global bog'lanish	-

Afzalliklar:

Vizualizatsiya. 3D modellashtirish orqali abstrakt va murakkab axborotni o'quvchilarga vizual tarzda tushuntirish osonlashadi, bu esa axborotni tezroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Interaktivlik. O'quvchilar 3D modellar bilan bevosita o'zaro aloqaga kirishib, ularni aylantirish, tahlil qilish, fikr bildirish va yangi bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Realistiklik. Uch o'lchamli obyektlar va muhitlar o'quvchilarga real hayotdagi sharoitlarni simulyatsiya qilish imkonini yaratadi, bu esa bilimning chuqurroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Global bog'lanish. 3D texnologiyalar o'quvchilarga butun dunyo bo'ylab mavjud obyektlar va modellar bilan tanishish, ularni tahlil qilish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Salbiy jihatlari:

Texnik talablar. 3D ta'lim uchun maxsus dasturiy vositalar va texnik uskunalar talab qilinadi. Bu esa o'quvchilarning texnik tayyorgarligini oshirish zaruratini tug'diradi.

Resurs cheklovlari. Yuqori sifatli 3D modellar va dasturlarga ega bo'lish zarurati ba'zi hollarda o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

O'qituvchilarning tayyorgarligi. 3D texnologiyalarni samarali qo'llash o'qituvchilarning texnik kompetensiyasiga bevosita bog'liq. Bu esa ularning malakasini oshirish va yangiliklarga tayyor bo'lishini talab etadi.

Ta'limda 3D texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun yuqoridagi cheklovlarga e'tibor qaratish, sifatli resurslar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning tayyorgarligini kuchaytirish hamda o'quvchilarda qiziqish uyg'otish muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 3D texnologiyalarni ta'limda samarali joriy etish uchun quyidagi bosqichli yondashuv tavsiya etiladi:

Texnologiyalarni o'zlashtirish. 3D modellashtirish, 3D printerdan foydalanish va boshqa tegishli vositalarni chuqur o'rganish orqali texnik tayyorgarlikni ta'minlash zarur.

Amaliyotga yo'naltirish. Teoretik bilimlarni amaliy faoliyat bilan mustahkamlash, 3D texnologiyalar asosida modellar yaratish orqali o'quv jarayonining faol ishtirokini ta'minlash lozim.

Yaratuvchanlikni rag'batlantirish. O'quvchilar o'z g'oyalarini 3D modellar orqali ifodalashlari, dizayn qilishlari va innovatsion echimlar topishlari uchun rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

Jamoaviy va kasbiy rivojlanish. 3D texnologiyalar jamoaviy ish ko'nikmalarini, ishbilarmonlik salohiyatini va amaliy kasbga tayyorgarlikni rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy integratsiyasi uchun muhim omildir.

Ushbu yondashuvlar orqali 3D texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish va raqamli transformatsiyalashgan o'quv muhiti yaratish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

3D ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish orqali o'quvchilarga taqdim etiladigan bilimlarni mustahkamlash, ularni uzoq muddat davomida xotirada saqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va adabiyotlardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini tashkil etish va unga mos pedagogik hamda tashkiliy shart-sharoitlarni shakllantirish mumkin. Bu, o'z navbatida, bakalvriat bosqichidagi talabalarning konstruktiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muhandislik sohasida qurilishi rejalashtirilgan yoki qurilayotgan bino va inshootlarning uch o'lchamli modellarini yaratish orqali ularning oldindan ko'rinishini baholash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ushbu modellar yordamida loyihaning vizual ko'rinishi qanday bo'lishini foydalanuvchilarga oldindan aniq namoyish etish imkoniyati yuzaga keladi[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tilakova, M. A. (2022). Ta'lim tizimi va mazmunini takomillashtirishda "Virtual ekskursiya" metodini qo'llanilishining ahamiyati: Tilakova Mavjuda Ashurovna, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, "Pedagogika va psixologiya ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri Eshmanova Nodira Nazarkulovna, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi. *Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya xalqaro ilmiy-uslubiy jurnal*, (7).
2. Mo'minov, E. (2022). Virtual ta'lim muhitida zamonaviy ta'lim tizimi va virtual borliq metodikasini shakllantirish. *Science and Innovation*, 1(B8), 1456–1460.
3. Qilichev, S., & Taniberdiev, A. (2023). Ta'lim sifatini oshirishda virtual texnologiyalar o'rni va ahamiyati. *Yevroosiyo texnologiyalar va innovatsiyalar jurnali*, 1(5–2), 158–161.
4. Xushbaqov, E. A. (2025). Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning 3D modellashtirish bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi. *Educational Research in Universal Sciences*, Volume 4, Issue 1, ISSN: 2181–3515, January 2025. https://t.me/Erus_uz
5. Wickens, C. D. (1992, October). Virtual reality and education. In *Proceedings of the 1992 IEEE International Conference on Systems, Man, and Cybernetics* (pp. 842–847). IEEE.
6. Xushbaqov, E. A. (2023). Buyuk Ipak yo'lining janubiy hududlaridagi ziyoratgohlarning 3D modelini yaratish va vizuallashtirish. *Nauchno-obrazovatel'nyy elektronnyy zhurnal "Obrazovanie i nauka v XXI veke"*, №25 (tom 2), Aprel – 2022.
7. Xushbaqov, E. A. (2024). 3D texnologiyalardan foydalanib talabalarda konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirish. *Golden Brain*, ISSN: 2181–4120, Volume 2, Issue 1, January 2024. https://t.me/goldenbrain_journal
8. Xushbaqov, E. A. (2024). Ta'limda 3D texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. *Golden Brain*, ISSN: 2181–4120, Volume 2, Issue 1, January 2024. https://t.me/goldenbrain_journal
9. Xushbaqov, E. L. A., & Axmedova, A. A. (2025). Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning 3D modellashtirish bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi. *Educational Research in Universal Sciences*, 4(1), 105–114.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
